

SPORT TA'LIM MUASSASALARI TARBIYACHILARINING UZLUKSIZ MALAKASINI OSHIRISH - DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Begimqulov Zarif Axmadovich

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali v.v.b. dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПОВЫШЕНИЕ НЕПРЕРЫВНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГИ СПОРТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Бегимкулов Зариф Ахмадович

*Самаркандский филиал Института переподготовки и
повышения квалификации специалистов по физическому
воспитанию и спорту доцент, доктор философии
педагогических наук (PhD)*

IMPROVING CONTINUOUS QUALIFICATION OF TEACHERS OF SPORTS EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Zarif Akhmadovich Begimkulov

*Samarkand Branch Institute of retraining and advanced
training of specialists in physical education and sports, Associate
Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*



zarifbegimqulov77@gmail.com

<https://orcid.org/0022-0025-2944-7202>

Annotatsiya: Mazkur maqolada sport ta'lim muassasalari tarbiyachilarining malaka oshirish tizimi, ularning uzluksiz malakasini oshirish jarayonining tashkil etishning dolzarb masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: sport ta'limi, tarbiyachi, jismoniy tarbiya, sport, mutaxassis, bilim, ko'nikma, malaka, ustoz-shogird.

Annotation: This article talks about the system of training of teachers of sports educational institutions, the current issues of organization of the process of their continuous training.

Key words: sports education, educator, physical education, sport, expert, knowledge, skill, skill, teacher-student.

Аннотация: В данной статье говорится о системе подготовки преподавателей спортивных образовательных учреждений, актуальных вопросах организации процесса их непрерывной подготовки.

Ключевые слова: спортивное воспитание, педагог, физическое воспитание, спорт, специалист, знание, умение, умение, педагог-ученик.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda sport ta'limi yo'nalishida ham keng qamrovli ishlar, tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini

chuqurlashtirish, yangilash hamda takomillashtirish, zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash, kasbiy, ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish, ularda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha munosabat va qarashlarni shakllantirish va rivojlantirishni ijtimoiy zaruriyatga

aylantirmoqda. **Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:** *“Bugun har bir tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak” [2].*

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi “Pedagogning majburiyatlari” deb nomlangan bo‘lib, unda jumladan, pedagog o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda: “o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o‘tishi” [1] belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirining 2023-yil 30-dekabrda “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallarida 2024-yilda o‘tkaziladigan malaka oshirish kurslari reja-jadvali va tinglovchilar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 01/1609-A/F-sonli buyrug‘i imzolangan bo‘lib, unda sport ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar uchun “Sport ta’lim muassasalarining tarbiyachilari” malaka oshirish kurslari joriy etilganligini ko‘rish mumkin. Ilk marta tashkil etilayotgan mazkur malaka oshirish yo‘nalishiga asosan quyidagi ta’lim muassasalarining pedagog kadrlari qamrab olingan:

- Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining tarbiyachilari;

- Milliy va olimpiya sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlarining tarbiyachilari.

“Sport ta’lim muassasalarida tarbiyachilari” malaka oshirish kursining maqsadi - pedagog kadrlarning innovatsion yondashuvlari asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy va malakalarni o‘zlashtirish hamda amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

-tarbiyachilarning zamonaviy kasbiy bilim-ko‘nikma malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-tarbiyachilarning ijodiy innovatsion faollik darajasini oshirish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish [3].

2024-yildan e’tiboran Sport vazirligi tasarrufidagi 15 ta Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari hamda 17 ta Milliy va olimpiya sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlarining tarbiyachilari jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar sifatida malakasini oshirishga jalb qilinmoqda. “Sport ta’lim muassasalarida tarbiyachilari” malaka oshirish kursiga malaka oshirishga kelayotgan sport ta’lim muassasalarining tarbiyachilarining aksariyati oliy ma’lumotli mutaxassislar hisoblanib, ular ish jarayonlarida asosan umumta’lim fanlari bo‘yicha darslar va sport mahoratini oshirish mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtlarda yosh sportchilar bilan dars tayyorlash, o‘quvchilar istiqomat qilayotgan xonalarni tartibga keltirish hamda turli tadbirlar o‘tkazish bilan shug‘ullanib kelmoqdalar.

Amaliyotdan ma’lumki, pedagog kadrlarni malakasini oshirish deganda pedagog xodimlarning kasbiy bilimlarini mustahkamlash va yangilash, chuqurlashtirish va zamonaviylashtirish, o‘quv reja va dasturlar asosida ularning ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetentlik darajasini oshirish, murabbiy-o‘qituvchi sifatidagi tajriba va ko‘nikmalarini boyitish tushuniladi. Malakasini oshirishga kelgan pedagog kadr tahsil oluvchi o‘rnini egallaydi. Agar u o‘zi faoliyat yuritayotgan muassasada asosiy tashkilotchi bo‘lsa, malakasini oshirish jarayonida ergashuvchi roliga aylanadi.

Pedagogika ensiklopediyasida malaka oshirish atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “malaka oshirish, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - uzluksiz ta’lim tizimi turlaridan biri, xalq xo‘jaligining barcha sohasida ishlovchi mutaxassis va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish jarayoni. Kadrlarning raqobatbardoshlik sifatleri hamda bilim va ko‘nikmalarining zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo‘lishini ta’minlaydi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash har bir xodimning o‘z

mutaxassisligi bo'yicha so'nggi fan yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish, ularni o'zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilg'or ish tajribalarini o'rganishdan iborat ilmiy nazariy hamda amaliy tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi..." [5]. Shuni alohida qayd etish lozimki, malaka oshirishga kelgan sport ta'lim muassasalarining tarbiyachilari jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar sifatida malakasini oshirmoqdalar.

Aynan malaka oshirish jarayonida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarga sohada erishilgan yutuqlar negizida ularga o'quv-uslubiy va me'yoriy-axborot yordam ko'rsatiladi, ularning kasbiy, ma'naviy-axloqiy saviyasi oshiriladi. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar tinglovchi sifatida malaka oshirish jarayonida katta hajmdagi ta'limiy axborotlardan bahramand bo'ladi, o'qitishning yangi metod va texnologiyalarini o'zlashtiradi, yangi bilimlarni egallaydi, kasbiy ehtiyojlarini qondiradi, turli hududlardan kelgan hamkasblari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarda malaka oshirish jarayonida konferensiyalar, ko'rgazmalar, sport musobaqalari, seminar-treninglar, tanlovlar va boshqa tadbirlarda qatnashish, o'z-o'zlarini shaxs sifatida ijodiy namoyish etish, fikrlash madaniyati va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, muassasa joylashgan hududdagi tarixiy obidalarga sayohatlar uyushtirish orqali ularning ijtimoiy-madaniy kompetentligi rivojlantiriladi [4].

Tahlil va natijalar. Sport ta'lim muassasalarining tarbiyachilari yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs hisoblanib, uning yuqori pedagogik mahorati ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Malaka oshirishga kelgan sport ta'lim muassasalarining tarbiyachilari jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar sifatida malakasini oshirib, kasbiy faoliyatiga doir bo'lgan bir qator me'yoriy hujjatlar bilan yaqindan tanishadilar, faoliyat yuritayotgan kasbi bo'yicha so'nggi yutuqlar, yangiliklar bilan tanishish, ularni o'zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilg'or ish tajribalarini o'rganish, kasbiy mahoratini yanada oshirish, lavozimi bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil o'zlashtirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Malaka oshirishga kelgan sport ta'lim muassasalarining tarbiyachilari bilan dars va

ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari jarayonida ularning kasbiy faoliyatida bir qator yechilishi lozim bo'lgan jihatlar mavjudligini guvohi bo'ldik. Jumladan, sport ta'lim muassasalarining tarbiyachilari uchun attestatsiya jarayoni tashkil etilmaganligi, shuning uchun bugungi kunda barcha tarbiyachilar bir xilda - malaka toifasiz faoliyat yuritayotganligi, ular uchun malaka tavsiflari ishlab chiqilmaganligi, muassasalarda tarbiyachilari uchun malaka oshirish istiqbol rejasining yo'qligi, ish faoliyati davomida o'z ustida mustaqil ishlash bo'yicha talabni shakllantirilmaganligini alohida ta'kidladilar.

O'tkazilgan tahlillar sport ta'lim muassasalarida tarbiyachilarining kasbiy mahorati, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining chuqurlashtirish, ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirishni har to'rt yilda olib boriladigan malaka oshirish jarayonidagina amalga oshirib bo'lmashligini ko'rsatmoqda.

Amaliyotdan ma'lumki, har qanday sport ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning pedagogik mahorati uzluksiz malaka oshirish jarayonida sohaga oid yangiliklarni o'zlashtirishi va o'z ish faoliyatida qo'llashi natijasida boyib boradi. Bizning fikrimizcha, sport ta'lim muassasalarida quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- sport ta'lim muassasalarida tarbiyachilarining lavozim majburiyatlarini o'rnatilgan tartibda qaytadan ko'rib chiqish va takomillashtirish;

- sport ta'lim muassasalarida tarbiyachilar uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy qilish;

- "Ustoz-shogird" an'analarini sport ta'limiga keng joriy etish hamda ushbu faoliyatni uzluksiz ravishda takomillashtirib borish;

- tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda sport ta'lim muassasalarida tarbiyachilari o'rtasida "Yil tarbiyachisi" ko'rik-tanlovlarini tizimli ravishda o'tkazib borish;

- tarbiyachilar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida barcha sport ta'lim muassasalarida malaka oshirishning "Kasbiy rivojlanish soati", shuningdek, "Kasbiy rivojlanish kuni" kabi shakllarini joriy etish;

- tarbiyachilarning turli o'quv seminarlari, treninglar, tanlovlar, konferensiya va

anjumanlarda ishtirokchi va ma'ruzachi sifatida qatnashishini ta'minlash;

- muassasada tarbiyachilarning ijodiy faoliyat olib borish, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishlariga tegishli sharoitlarni yaratish.

Ma'lumki, har qanday pedagog kadr uzluksiz malaka oshirish jarayonida o'zining kasbiy bilim va mahoratini oshirib borishi natijasida yangicha usullardan foydalanib, kasbiy faoliyatini tashkil etgandagina ta'lim-tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish mahoratini egallaydi. Buning uchun bugungi kun pedagog kadrlari hozirgi davr talablarini teran tushunishi, zamon bilan hamohang tarzda o'z kasbiy darajasini muntazam va tizimli ravishda oshirib borishi, ilmiy-uslubiy ish olib borish malakasiga ega bo'lishi, tadqiqot vazifalarini oldinga qo'yishni bilishi, tegishli tadqiqot usullari hamda uslublarini tanlay olishi, olingan ma'lumotlarni tahlil qila olishi lozim bo'ladi.

Xulosa. Sport ta'lim muassasalari tarbiyachisi, eng avvalo, yosh sportchilarning kelajagi, taqdiri, jamiyatda munosib o'rnini egallashi uchun yuksak mas'uliyatni to'la anglab yetishi zarur. Bugungi kunda, tez o'zgaruvchan dunyoda ijtimoiylashgan, tafakkuri, madaniyati va ma'naviyati yuksak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lgan shaxsni tarbiyalashga qodir, yuqori malakali, ijodiy ishlaydigan, ijtimoiy faol va raqobatbardosh pedagoglarga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Sport ta'lim

muassasalari tarbiyachilarining kasbiy salohiyatini oshirish va zamonaviy hayot talablariga javob beradigan darajada bo'lishini ta'minlash ijtimoiy zaruratga aylandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6786401>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" mavzusidagi nutqi. 2020-yil 30-sentyabr. www.xs.uz

3. "Sport ta'lim muassasalari tarbiyachilari" sport ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning malaka oshirish kursi o'quv dasturi. Toshkent-2023, 16 b.

4. Begimqulov Z.A. Malaka oshirish jarayonida jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish. Uslubiy qo'llanma. -Samarqand: SamDCHTI nashriyoti, 2023, B.44-45.

5. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.– T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.– 376 b.

